

СТАНЦИЯ ВА ПОДСТАНЦИЯНИ ЮҚОРИ КУЧЛАНИШДАН ҲИМОЯЛАШ

Yuqori kuchlanishli havo liniyalari, postansiyalar, ochiq tarqatish va taqsimlash qurilmalaridagi elektr uskunalar katta o'lchamlarga ega bo'lganligi, boshqa qurilmalarga nisbatan baland bo'lgan sim ustunlar, katta transformatorlar kabi elektr qurilmalardan tashkil topganligi uchun atmosfera yuqori kuchlanishlarni (yashin va chaqmoq) ta'siriga ko'proq uchraydi.

Elektr havo liniyalarini yashin zarbidan himoyalashga erishishda sim ustunning eng baland cho'qqisiga (yuqori qismiga) maxsus nollashtiruvchi yoki yerlashtiruvchi sim o'tkazgich tortiladi va uning yordamida yashin zarbidan vujudga kelgan yuqori kuchlanishli zaryad yerga o'tkazib yuboriladi.

- ▶ Agar podstansiyalar yashin faol zonada joylashgan bo`lsa uskunalarni yashindan himoyalash uchun sterjenli va trosli yashin qaytargich tizimi quriladi.
- ▶ Sterjenli yashin qaytargichlar ayni olingan yoki bir yerga jamlangan stansiya va podstansiyalarning uskunalarini (ochiq tarqatish qurilmalari, yacheyskalari, transformatorlari, va h.k.) himoyalashda ishlatiladi.
- ▶ Sterjenli yashin qaytargichning tuzulishi 16 - rasmda berilgan. Yashin qaytargichning himoya zonasi deganda, sterjen atrofida joylashgan uskunaning eng yuqori nuqtasi sterjennikidan past bo`lib himoya zonasi radiusi ichida joylashaganligiga aytiladi. Bunday radius ichiga joylashgan obyektning atmosfera yog`inlari ta'siridan ta'sirlanish ehtimoli juda kichkinadir.